

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 4 (16)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc)., доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)., доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Akbarov Ravshan Xalimovich JADIDLAR MA'RIFATCHILIK FAOLIYATINI YOYISHDA "TARJIMON" GAZETASINING O'RNI	4
2	Ахрарова Амалия Искандеровна ЭВОЛЮЦИЯ ФОРМАТОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЯПОНИИ: СТАНОВЛЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕГИОНАЛЬНОГО ДИАЛОГА	14
3	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССР САБЗАВОТ-ПОЛИЗ ЭКИНЛАРИ ВА КАРТОШКА ИЛМИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН	27
4	Israilov Nodir Raximjonovich XVI ASR FRANSUZ SHARQSHUNOSLARI ASARLARIDA AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQ ETILISHI	39
5	Kandaxarov Anvarjon Xasanovich BUXORO XONLIGIDA JO'YBOR XOJALARINING IQTISODIY QUDRATI: SHAKLLANISH OMILLARI VA IJTIMOY-SIYOSIY TA'SIRI	45
6	Mamajonov Soyibjon Xalilovich AMIR TEMUR VA TO'XTAMISHXON MUNOSABATLARI YOZEF FON XAMMER-PURGSHTAL TALQINIDA	52
7	Mahkamova Zulxumor Murodjon qizi TURKISTON ASSRNING SOLIQ SIYOSATI TARIXIDA KADRLAR TARKIBINING AKS ETISHI	58
8	Mirzayeva Zaxra Xayritdinovna KO'RGAZMA ORTIDAGI IMPERIYA: KAUFMAN DAVRIDA TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATINING NAMOYON BO'LISHI	64
9	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich TO'SKENT VOHASINING QADIMGI VA RIVOJLANGAN ORTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATIGA OID YOZMA MANBALAR XUSUSIDA	71
10	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGIDA AHOLINING OMMAVIY ISHLARGA JALB ETILISHI TARIXSHUNOSLIGI	85
11	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGI-XITOIY O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR XORIJIY TADQIQOTCHILAR TALQINIDA	90
12	Raxmankulova Matluba Bayxurazovna XX ASR BOSHLARIDA G'ARBDA TEMURIYLAR KITOBAT SAN'ATINING O'RGANILISHI	96
13	Razzokova Nigora Olimjon kizi INCLUSIVE EDUCATION PRACTICES AND THEIR IMPACT ON LINGUISTICALLY DIVERSE LEARNERS IN MULTICULTURAL CLASSROOMS	107
14	Sadirov Aziz Sirojiddinovich MUSTAQILLIK ARAFASIDA QASHQADARYO VILOYATIDA YO'L TRANSPORT INFRAUZILMASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	113
15	Сиддиков Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ХАЛҚАРОЛАШУВИ ТАРИХИГА ДОИР (1997-2016)	120

Akbarov R. X.

«Jahon tarixi» kafedrası dotsenti

Fargʻona davlat universiteti

[ravshanakbarov04.@gmail.com](mailto:ravshanakbarov04@gmail.com)

JADIDLAR MA'RIFATCHILIK FAOLIYATINI YOYISHDA "TARJIMON" GAZETASINING O'RNI

ANNOTATSIYA

Maqolada Ismoil Gasprinskiyning gazeta nashr etish va ta'lim tizimi uchun qilgan sa'y-harakatlari, XIX asr ikkinchi yarmida Qrim va O'rta Osiyodagi musulmonlar orasidagi ta'lim tizimining umumiy manzarasi, jadidlar tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy taklif va qarashlar, "Tarjimon" gazetasining ta'lim tizimini yaxshilash borasidagi xizmatlari haqida so'z yuritiladi. Ma'lumki, I. Gasprinskiy faoliyatining katta qismi bevosita Turkiya bilan bog'liq. Shuning uchun maqola tayyorlanishida gazeta materiallaridan tashqari turk tarixshunoslari tomonidan masalaga oid asarlaridan keng foydalanildi. Zero, I. Gasprinskiy haqida turk tarixchilari tomonidan qimmatli materiallarga boy tadqiqotlar e'lon qilingan.

Kalit so'zlar: gazeta, diniy maktab, yangi usul maktabi, darslik, ta'lim, muallim, imtihon, ayollar huquqi, "osuda shahar" tushunchasi.

KIRISH

XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tarkibidagi musulmonlar xalqlar orasida jadidchilik deb nomlangan ma'rifatparvarlik harakati vujudga keldi. "Jadidlar" deyilganda aksariyat Rossiya imperiyasida yashovchi turkiy qavmlar yangilikni qabul qila oladigan va yangilik tarafdori bo'lgan ma'rifatparvarlar nazarda tutilgan. Dastlab, "jadid" atamasining ma'nosini to'g'ri tushunib olish kerak. Bugungi kunda jadid atamasiga nisbatan asosan "yangilik", "yangi usuldagi maktabni tashkil etuvchilar" tushuniladi. Aslida esa "jadid" so'zi lug'aviy jihatdan ancha boy ta'rifga ega bo'lib, "eskining aksi", "yangi" degan ma'nolarni bildiradi. Aynan shu so'zning boshqacha shakli bo'lgan "tajdid" so'zi esa "yangilash", "biror narsani eski holatiga qaytarish" ma'nosini bildirsa, ayni so'zning o'zagidan yasalgan "mujadid" esa (turkiy ifodasi "jadidchi") "yangilovchi", "biroor narsani eski holatiga qaytaruvchi" ma'nosini bildiradi. Shu sababli "jadid" tushunchasi ham eskining davri o'tgan va buzilgan jihatlarini yangilash, hamda eski narsaning asl bir jihatlarini tiklash, ularni jonlantirish ma'nolarini ham bildiradi [15. 100]. Ma'lumki, jadidchilik ta'lim tizimini isloh qilish harakatidan boshlanib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida siyosiy harakatga aylangan. Dastlabki davrda rus hukumati jadidlar faoliyatiga taqiqlovchi nazar bilan qaramagan. Hatto, ushbu harakatni qo'llab quvvatlagan [16.108]. Yangi usul maktablarini ochish va uni rivojlantirish uni targ'ibotisiz amalga oshishi qiyin edi. Shuning uchun u gazeta nashr etish maqsadida juda katta g'ayrat sarf qilgan. Ismoil Gasprinskiy gazetachilik faoliyatini boshlamasdan oldin 1881-yili "Tavriya" gazetasida ikki maqola e'lon qilgan va keyinchalik bu ikki maqolani umumlashtirib, "Russkoe musulmanstva" ("Rus musulmonlari") nomli risolasini Oqmasjidda (rus hukumati qrimdagi

Oqmasjid shahrini nomini Simferopol deb o'zgartirgan [8.6]) nashr qildirgan [18]. I.Gaspirali bu asari orqali butun umri davomida qiladigan ishlarini bir dastur sifatida ko'rsatgan va turkiylarning taraqqiyotda ortda qolish sabablarini tadqiq qilib, umumiy turkiy til shartligi haqida xulosaga kelgan. Gasprinskiy bu asarining maqsadi Rossiya musulmonlarini taraqqiyotdan orqada qolish masalasini bahslashishni muammo uchun tadqiqotlarni boshlash edi. Gasprinskiy 1881-yildan "To'ng'ich", "Shafaq" nomli qisqa muddatlarda yopilgan gazetalarini chiqargan. Bu gazetalarning ham asl maqsadi turkiy qavmlar ovozi yoyish edi. Gasprinskiy "Tarjimon" gazetasini chiqarishdan oldin Boqchasaroyda nashriyot qurgan va bu matbaa orqali turli asarlarni bosmadan chiqargan [7.104].

Gasprinskiyni turkiy xalqlar orasida mashhur qilgan ishi shubhasiz "Tarjimon" gazetasidir. Aslida "To'ng'ich" (1881), "Mirati Jadid" (1882) gazetolari ko'proq broshyura shaklida nashr qilishga ruxsat berilgan. Chunki uning gazeta chiqarish haqidagi murojaatlari rad etilgan edi. Nihoyat, Sankt-Peterburgda turkiy tilda nashr etiladigan gazetaning ruscha ilovasi bo'lishi sharti bilan 1883-yili ruxsat beriladi. "Tarjimon" gazetasi turkiy va rus tilida (ruschasi – "Perevodchik") bo'lib, ikki qismdan iborat edi [7.105].

Ismoil Gasprinskiy Peterburgga qilgan tashriflari bilan birga "Tarjimon" gazetasini chiqarish va bosmaxona tashkil etish uchun rus amaldorlaridan zarur ruxsatni olgan edi. Gazeta turkcha va ruscha ikki bo'limdan iborat bo'lishi kerak edi. Rossiya hukumatining bu ruxsatni berishida mahalliy musulmon xalqining Rossiyaga xayrixohlik his qilishini ta'minlash maqsadi bo'lgan deb taxmin qilingan.

Shuningdek, Gasprinskiyning Boqchasaroy shahar hokimi bo'lishi, rus zodagonlari bilan do'stona munosabatlari, rus maktablarida ta'lim olgani kabi omillar gazeta chiqarish uchun ruxsat olishida katta rol o'ynagan. "Tarjimon" gazetasi 1883-yil 10-aprelda nashr etila boshlagan. Gasprinskiy gazetaning tarqalishi uchun rejimga moslashib harakat qilishga majbur edi. Shu sababli, u o'z g'oyalarini yumshoq, yashirin tarzda tushuntirishi va Rossiya hukumatini g'azablantirmaslikka harakat qilishi kerak edi. Ushbu siyosati tufayli "Tarjimon" gazetasi boshqa turkiy tildagi gazetalar orasida eng uzoq muddat nashr hayotida saqlanib qolishga erishdi [17.73-74].

Ismoil Gasprinskiy "Tarjimon" gazetasining o'sha davr Rossiya hukumati bilan uyg'un va muvozanatli munosabatda bo'lib, uzoq vaqt nashr hayotida qolishini ta'minlagan. Agar u Rossiya hukumatiga qarshi va muxolif munosabatda bo'lganda, qisqa vaqt ichida gazetaning yopilishiga sabab bo'lishi mumkin edi. Ammo Gasprinskiy yaxshi muvozanat siyosatini olib borib, "Tarjimon" gazetasidan Rossiya turklari uzoq vaqt foydalanishini ta'minladi [13.400].

O'zining nomini Istanbulda Shinosiy afandi chiqargan "Tarjimon-i ahvol"dan olgan gazeta Rossiyada nashr etilgan birinchi turk gazetasi bo'lmasa-da, o'ynagan roli jihatidan eng muhim ahamiyatga ega edi. 1883-yil 10-apreldan 1918-yilgacha (1903-yilgacha haftada bir marta, 1903-1912-yillar oralig'ida ba'zan ikki, ba'zan uch marta, 1912-yil sentyabridan keyin har kuni) 35 yil nashr etilib, davom etgan "Tarjimon" gazetasi Qohiradan Qoshg'argacha, Qozondan Hindistongacha tarqalgan [17.75].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Ismoil Gasprinskiy turk-tatar olamida ta'lim berishning dastlabki usuli savtiya asosida ta'lim bergan maktablarning ilk tajribasini qo'lladi. Uning 1883-yili chiqara boshlagan "Tarjimon" gazetasi bu usulni targ'ib qilishda eng kuchli vosita bo'ldi. U bu masalada doimiy ravishda "Tarjimon" gazetasida o'z fikrlarini bildirgan va tegishli tavsiyalar berib borgan. Asosiy e'tiborini usuli jadid maktablar tarmog'ini kengaytirishga qaratdi. Aslida xalqning o'z ona tilida va dunyoviy fanlarni o'qishi kerakligi, bu borada kerakli darsliklarni yozib, turkiy qavmlar orasida ilk "yangicha usul"ni qo'llagan Qayum Nosiriy ish boshlaganda Ismoil Gasprinskiy hali dunyoga kelmagan edi. Faqat, Gasprinskiy 1883-yili chiqara boshlagan "Tarjimon" gazetasi vositasida bu harakatni butun Rossiyaga yoyadi [8.12].

Ismoil Gasprinskiy yashagan davrda Qrimda ta'lim tizimi faoliyati haqida shunday manzara mavjud edi: XIX asrda qrimlik tatarlar diniy ta'lim va ona tilidan bilim oladigan umumiy ta'lim tizimiga ega bo'lmaganlar. Mavjud ta'lim tizimida ham tartib va nazorat ham mavjud emasdi. Har bir muallim qachon xohlasa o'shandagina ta'lim berar, ta'lim tizimini tashkil etish uchun hech qanday umumiy ko'rsatma va davlat tomonidan yoki vaqf mulkidan oylik maosh mavjud emasdi. Bunga boshlang'ich savod chiqarish bo'lgan o'qish va husnixat uchun umumiy nazoratni qo'shilsa, hech qanday yangi pedagogik usul ham qo'llanilmasdi. Bu oddiy bilim bolalarga maktabga uch-to'rt yil qatnaganlaridan keyingina nasib etardi [2]. Ismoil Gasprinskiyga ko'ra ta'lim tizimining ahvoli, ehtiyojlari, rivojlanishi va tanazzuli haqida hech narsa ma'lum emas. Maktablar soni ortdimi yoki kamaydimi, ularda qancha bolalar yoki qizlar ta'lim olmoqda? Bular haqida ma'lumot yo'q [2].

Rossiyada yashovchi musulmon aholi bolalari orasida ta'lim tizimi bilan bog'lanish juda past darajada edi. Masalan, Farg'ona viloyatida ta'lim beruvchi muassasalar soni juda ko'p. Ular ikki guruhga bo'linadi: oliy maktablar – madrasa, quyi maktablar – maktabxona. Maktabxonada o'g'il bolalardan tashqari, qizlar ham o'qitiladi. Viloyatda 165 ta yuqori madrasa mavjud bo'lib, ularda 5863 nafar talaba tahsil oladi. Maktabxonalar soni 1116 ta bo'lib, ularda 11469 nafar bolalar va 2725 nafar qizlar ta'lim oladi. O'sha davr viloyatda 655002 nafar aholi borligi inobatga olinsa, 27 kishidan bir nafari maktabga qatnaydi, xolos [3].

Ismoil Gasprinskiy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan maktablar ahvolining umumiy manzarasini bilish maqsadida tizimni nazorat qiluvchi Diniy boshqarmaga quyidagi so'rovnoman tashkillasjni taklif etadi: 1) Maktab yoki madrasa qachon ochilgan; 2) o'z binosi bormi yoki ijaraga olinganmi; 3) qanday mablag'lar hisobiga faoliyat olib boradi - vaqf yoki sarmoyalari bormi; 4) o'quvchilar mudarris yoki muallimga oyiga yoki yiliga qancha haq to'laydilar; 5) bir yilda necha oy ta'lim beriladi; 6) so'nggi besh yilda o'quvchilar soni ortdimi yoki kamaydimi; 7) madrasa yoki maktabda nimalar va qaysi qo'llanmalar asosida o'qitiladi; 8) joriy yilda madrasada nechta talaba tahsil olmoqda; 9) maktabda nechta o'g'il bola va nechta qiz bola o'qiyapti; 10) mudarris yoki muallim yiliga qancha daromad yoki maosh oladi va qachondan beri xizmat qilmoqda; 11) maktabning doimiy binosi qachon qurilgan, ta'mirlashga muhtojmi, buning uchun

qanday mablag'lar yoki rejalar mavjud [1]. Muallif ushbu so'rovnomaga orqali hududdagi ta'lim tizimi haqida umumiy manzarani hosil qilish va shu orqali hukumat nazarini ushbu masalaga qaratmoqchi bo'lganligi ayon.

Ismoil Gasprinskiy "Tarjimon" gazetasining o'sha davr Rossiya hukumati bilan uyg'un va muvozanatli munosabatda bo'lib, uzoq vaqt nashr hayotida qolishini ta'minlagan. Agar u Rossiya hukumatiga qarshi va muxolif munosabatda bo'lganda, qisqa vaqt ichida gazetaning yopilishiga sabab bo'lishi mumkin edi. Ammo Gasprinskiy yaxshi muvozanat siyosatini olib borib, "Tarjimon" gazetasidan Rossiya turklari uzoq vaqt foydalanishini ta'minladi [13.400].

Ismoil Gasprinskiy umumiy turk tili va barcha turklar tushunishi mumkin bo'lgan umumiy til masalasiga juda ko'p harakat sarflagan. Shuningdek, u o'qish va yozishni osonlashtiradigan usul-i savtiya usulini qo'llab-quvvatlagan va bu usul bilan ta'lim berish bo'yicha ko'p sa'y-harakatlar qilgan. "Tarjimon" gazetasida ham ta'lim bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Ismoil G'aspirali ta'lim-tarbiyaga oid quyidagi fikrlarni bildiradi: "Tarjimon" bilan afkori omma ancha targ'ib qilinib, usul bilan qirq kun ichida muftadiy bolaga turkcha o'qish-yozishni o'rgatish mumkinligi e'lon qilinib, Boqchasaroyning "Qaytmas og'a" mahallasining xaroba maktab binosi biroz ta'mirlandi. Talabalardan Bakir afandi taklif etilib, usul-i savtiya va didaktika hamda pedagogikaning eng zarur jihatlari bu afandiga o'rgatilib, "Birinchi muallim" tayyorlandi. Shunday qilib, o'zim tartib bergan dastur bo'yicha 1884-yilda "Birinchi maktab-i jadid"ni ochdim. O'qiladigan alifbo yozganim "Xo'ja-i Sibyon" edi. Ta'lim muddati uch yil; dastur - turkcha o'qish va yozish, Qur'on qiroati, Ilmi hol, husnixat, sarf-i turkiy, xizni hisob, amal-i arba'a, Islom tarixi bilan geografiyadan, tarixdan va hifz-i sihatdan juda sodda, juda qisqa ma'lumot berishdan iborat edi" [10.72]. Ushbu satrlardan "Tarjimon" gazetasida yangi usul bo'lgan usuli savtiya bilan bola qirq kunda o'qib-yozishni o'rganishi mumkinligi, eski maktab qayta ta'mirlanib, bu yerga o'qituvchi tayinlanib, ta'limga tayyorlanganligi, o'qish muddati uch yil ekanligi, darslar turk tilida olib borilishi, Qur'on ta'limi, Islom tarixi, geografiya kabi fanlar o'qitilganligi anglashiladi. Ismoil Gasprinskiy tomonidan yo'lga qo'yilgan yangi usul maktablarining afzalliklari tez orada o'z samarasini bergan. Masalan, Qaytoq Og'adagi ilk yangi usul maktabida imtihon o'tkazildi. Ota-onalar ishtirokida 40 nafar o'quvchi shariat va Qur'on ilmi, o'qish, tatar tili grammatikasi va arifmetikadan imtihon topshirdilar. O'quvchilar katta muvaffaqiyatga erishganliklarini ko'rsata oldilar. Hatto uch nafar o'quvchi ikki yilda maktabni tamomlaganliklari haqida guvohnoma oladilar [4].

Ismoil Gasprinskiyning "Tarjimon" gazetasi ta'lim-tarbiyaga bergan ahamiyati gazetaning ta'siri bilan usul-u savtiya muallimligini o'rganish uchun Kavkazdan va Rossiyadan Bog'chasaroyga talaba va mullalar kela boshladi. Birinchi namuna maktabi ham maktab, ham ma'lum darajada "Dorul-muallimin" vazifasini bajarardi. Kelgan mullalar bir-ikki oy maktabda mehmon bo'lib, muallimlik shahodatnomasini olib, o'z yurtlariga qaytishardi. Shu tariqa ma'rifat va yangilanish uchqunlari u yoq-bu yoqqa sachrardi [13.411]. Ushbu satrlar "Tarjimon" gazetasi yangi ta'lim usulini joriy etib, boshqa mamlakatlardan talabalar va o'qituvchilarning kelishini ta'minlaganini va maktablar bu kelganlar

uchun ham ta'lim muassasasi, ham o'qituvchilar tayyorlash markazi vazifasini o'taganini ko'rsatadi. Shu tariqa ta'limning yangi tushunchasi tarqalib, yangi talabalar va o'qituvchilar tayyorlanadigan ta'lim islohoti qabul qilingan va keng yoyilgan muhit mavjudligini kuzatish mumkin.

Rossiya Xalq maorifi qonunchiligiga binoan barcha maktablar Tavriya Musulmon Ruhoniy Boshqarmasi ixtiyorida bo'ladi. Jamoalar tomonidan saylangan va taklif etilgan xo'jalarni shu boshqarma tasdiqlaydi. Maktablarga g'amxo'rlik qilish va ularni nazorat qilish mas'uliyati ham aynan uning zimmasiga yuklatilgan. 1888-yil fevral oyi Simferopol shahrida uyezd qozilarining yillik yig'ilishi bo'lib o'tgan. Ushbu yig'ilishda maktablardagi ta'lim va tartib-intizomni yaxshilash masalasi muhokama etilishi kerak edi. Ismoil Gasprinskiy bunday imkoniyatdan foydalanib, maktablarda zamonaviy usullarni joriy etishga doir o'z takliflarini beradi. Unga ko'ra: 1. Vaqf daromadi yetarli bo'lmagan maktablarda ta'lim uchun xo'jaga haftasiga 3-5 tiyin emas, balki har bir o'quvchidan 15 tiyin to'lanishi belgilansin; 2. Nasihat-targ'ibot orqali maktablarga o'qish yoshidagi barcha bolalarni jalb etish lozim; 3. Barcha o'qituvchilarni o'qish, yozish, ilmi hol va arifmetika asoslarini o'rgatishga majbur qilish kerak; 4. Har yarim yilda uyezd qozilari orqali muallimlar Diniy Boshqarmaga o'quvchilar soni haqida, ularning ko'payishi va kamayishini ko'rsatgan holda ma'lumot berishlari shart; 5. Uch yil o'rniga olti oyda savodxon qilish maqsadida o'qitishni yengillashtiruvchi yangi alifbolar va qo'llanmalarni tuzish yoki sotib olish choralari ko'rish lozim; 6. Uyezd qozilariga maktablardagi ta'lim jarayonini, muallimlarning muvaffaqiyatlari va xulq-atvorini doimiy ravishda kuzatib borish vazifasi yuklansin, shuningdek, ularga maktablar va muallimlarning moddiy ahvolini yaxshilash choralari haqida g'amxo'rlik qilish mas'uliyati topshirilsin [2].

Turkiy qavmlar orasida ayol maqomini yuksaltirish uchun harakat qilgan Gasprinskiyning eng katta xizmati ta'limda boshlab yuborgan zamonaviylashtirish harakati ekanligi, bu boradagi g'oyalarini "Tarjimon" vositasida tarqatganligi ta'kidlangan. Ismoil Gasprinskiy ayolning ish hayotida faol rol o'ynashi kerakligini o'ylardi. Bu faoliyatlar bilan bog'liq "Tarjimon" gazetasida muvaffaqiyatli ayollar haqidagi xabarlarga o'rin berilib, muvaffaqiyatli ayollar maqtalgan [12.211]

"Tarjimon" gazetasida "Milliy maktab dastasi" (1910-yil 27-avgust / 1318-yil 12-ramazon, 35-son) deb nomlangan maqolada ham maorif boshqarmasi tomonidan maktablarda o'qitilishi belgilangan kitoblar qatorida Xo'jai Sibiyonning davomi bo'lgan "Qiroati turkiy" ham o'rin olgan. Gasprinskiy turkiy tilda yozish va o'qishning ahamiyatini ko'p o'rinlarda ta'kidlaganidek, biz ko'rib chiqayotgan ushbu asarning "ta'limot" qismida ham anglatgan. Madrasalarda mavjud bo'lgan yodlashga asoslangan ta'lim-tarbiya tushunchasi G'arbdan kelgan zamonaviy ta'lim tizimida yo'qligini ko'rgan Gasprinskiy, bu "ta'limot"da talabalar avval o'z ona tillarida o'qib-yozishlari va yodlashni faqat namoz suralari uchun qo'llashlari kerakligini aytgan va misollar keltirgan. Ushbu yo'riqnomada, shuningdek, o'quvchilar ham, o'qituvchi ham darsni qanday o'tishlari kerakligi tasvirlangan. Darsda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday muammo ham ko'rib chiqilib, o'quvchilar va o'qituvchilarga maslahatlar berilgan [14.79-86].

Ismoil Gasprinskiy “Tarjimon” gazetasida yodlash ta’limi o’rniga g’arb uslubidagi ona tilida o’qitishning muhimligini, darslarni o’tkazish bo’yicha o’qituvchi va o’quvchilar qanday yo’l tutishlari kerakligi haqidagi kitoblardan ham maqolalarga joy berish orqali “Tarjimon” gazetasining ta’lim-tarbiya masalalariga qanday yondashganini va ta’limga qanchalik ahamiyat berganini ko’rish mumkin.

“Tarjimon”da o’z imzosi bilan o’quvchilarga ochiq-oydin ayta olmaganlarini bilvosita bayon etgan. Gasprinskiy yaratgan “osuda shahar”da ta’limga juda katta e’tibor beriladi. Sakkiz yoshdan o’n ikki yoshgacha bo’lgan barcha bolalar maktabga boradi. Boshlang’ich ta’lim 4 yil davom etadi. O’g’il bolalar va qizlar alohida o’qiydilar. O’g’il bolalar boshlang’ich maktabda matematika va dinni o’rganadilar. Keyin ular qishloq xo’jaligi fani va unga oid fizika hamda kimyo mavzularini o’qiydilar. Qishloq hayoti va yashash uchun zarur bo’lgan hunar va kasb-korlarni amaliy tarzda o’rganadilar. Qiz bolalar esa maktabda avvalo o’qish va yozishni o’rganadilar [7.109].

Rossiya turklarining uyg’onishida juda muhim o’rin tutgan Ismoil Gasprinskiy o’z g’oyalarini chor hukumati bilan ziddiyatga bormasdan, mo’tadilroq tarzda ifodalagani ayrim tomonlar tomonidan tanqid qilinishiga sabab bo’lgan. “Tarjimon” gazetasining birinchi sonida e’lon qilingan tuzumga qarshi ittifoqchi maqolalari keyingi davrlarda ham tanqidlarga uchradi. Ammo ko’plab rus missionerlari tomonidan tanqid qilingan va hatto konservativ musulmonlar tomonidan ham tanqid qilingan Gasprinskiyning Rossiyada juda kuchli qo’llanilgan senzura bilan kurasha olishi va “Tarjimon” gazetasini 35 yil davomida chiqarib, o’z fikrlarini shu gazeta orqali turklarga yetkazish orqali Rossiya turklarining uyg’onishiga ta’sir ko’rsatishida, boshqarib bo’lmaydigan his-tuyg’ular bilan emas, balki ehtiyotkorlik bilan harakat qilishining ahamiyati katta edi.

Ismoil Gasprinskiy Rossiya turklarining o’z kimligini saqlab qolishi faqat umumiy tilda so’zlashuvchi ma’rifatli xalq orqali mumkin ekanligini himoya qildi. U turk xalqini ma’rifatli qilish va ular bir-biri bilan bemaol muloqot qila oladigan umumiy turkiy tilga ega bo’lishi uchun butun umri davomida kurashdi, biroq siyosiy birlikni ta’minlash faoliyatidan to’xtab qoldi. Bu yondashuvida uzoq muddatli sharoitlarda siyosiy birlikni ta’minlash imkonsizligining ta’sirini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Darhaqiqat, bu boradagi fikrlarini “Bizga taqiqlangan ba’zi fikrlar bor. Ularni bizdan keyingi avlodlarga qoldiraylik. Biz ma’naviy birlikni yarataylik, tillarni birlashtiraylik, siyosiy birlik haqida boshqalar o’ylasin” so’zlari bilan aniq ifodalagan [10.35]. Tarjimon gazetasi “Tilda, fikrda, ishda birlik” so’zini shior qilib olgan. Gasprinskiy, bir jamoani millatga aylantiruvchi eng muhim omillardan biri til birligi va din birligi ekanligini va buni uzoq vaqt davomida saqlab qolish mumkinligini ta’kidlagan. Ulardan birortasining yo’qligi holatida millatlarning buzilganini yoki inqiroz davriga kirganini ta’kidlagan [9.76]. Gasprinskiy turklarni yaxlit bir butun deb hisoblab, ularga tatar, ozarbayjon, boshqird, o’zbek kabi nomlar berilishi to’g’ri emasligini himoya qilgan. Gasprinskiyning fikricha, Rossiya hukmronligi ostidagi musulmon turklar va dunyoning narigi chekkasidagi turklar uchun umumiy til ishlatilishi kerak edi. Qisqasi, u shunday tilni xohlardiki, bu til gapiriladigan va yoziladigan paytda

Istanbuldagi hammol va qayiqchi ham, Sharqiy Turkistondagi tuyakash va cho‘pon ham uni tushuna olishi kerak edi [10.29]. Gasprinskiy o‘z gazetasida Usmonli turk tiliga sodiq qolgan, ammo buni amalga oshirishda og‘ir bo‘lgan arabcha va forsha so‘zlardan foydalanmay, hamma tushunadigan tilda maqolalarini yozgan. Biroq rus inqilobidan keyin matbuot sohasida portlash yuz berdi va chop etilgan asarlar o‘z mahalliy shevalari bilan nashr qilindi [8.41].

1914-yil oxirida “Tarjimon” gazetasida qora sahifa ochildi. Ismoilbekning vafotidan so‘ng “Tarjimon” o‘z yo‘nalishini yo‘qotmagan bo‘lsa-da, Ismoilbekning maqolalaridan mahrum bo‘lgan. Gazetaning imtiyozli egasi Ismoilbeyning o‘g‘li Rifat Gasprinskiy, bosh muharriri esa Hasan Sabri Ayvazov bo‘lgan. 1914-yilda Birinchi jahon urushi boshlanishi bilan gazeta ustunlarini urush xabarlariga to‘ldirdi. G‘aspiralining matbuot tarixida amalga oshirgan yana bir yangiligi shundan iboratki, u 1906-yilda o‘z tashabbusi va qizi Shafiq xonim rahbarligida Rossiya turklarining birinchi ayollar jurnali bo‘lgan “Olami Nisvon” (1906) jurnalini nashr etdi. 1910-yilgacha nashr etilgan jurnal asosan ayollar va oila bilan bog‘liq mavzularga bag‘ishlangan. Jurnalda ayollarga mo‘ljallangan bola tarbiyasi, sog‘liqni saqlash, nikoh huquqi, ayollar huquqlari bilan bog‘liq maqolalar, shuningdek Rossiya va undan tashqaridagi ayollar hamda G‘arb dunyosi madaniyati haqidagi xabarlar chop etilgan.

1914-yilda vafot etgan Ismoil G‘aspiralining turk dunyosiga qo‘shgan eng muhim hissalaridan biri Rossiya turklarining talaba sifatida Turkiyaga borishlariga yo‘l ochishi bo‘ldi. Rossiya turklari orasida ko‘p o‘qiladigan “Tarjimon” gazetasi, Rossiya turklarida ham til, ham fikr jihatidan Turkiyaga bog‘liqlikning kuchayishiga sabab bo‘lgan. Bu davrda Turkiyadagi Tanzimot harakati Usul-u jadidchilar orasida ham xayrixohlik uyg‘otdi va Turkiyaga ta‘lim olish uchun borganlar soni ko‘paydi. Darhaqiqat, G‘aspirali Ismoil beyning targ‘iboti va ta‘siri ostida “jadidchilik” harakatini qabul qilgan va bu oqimning Qozon viloyatidagi eng g‘ayratli tarafdorlaridan biriga aylangan G‘ilmon Oxundning o‘g‘li Fotih Karimiy Turkiyaga ta‘lim olish maqsadida kelganlarning boshida turadi [11.118].

“Tarjimon” vaqt o‘tishi bilan barcha turk yurtlarida va shu jumladan Istanbulda qiziqish bilan kutilgan gazetaga aylandi va bu holatni uzoq yillar davom ettirdi. Ba‘zi paytlarda faqat Istanbulning o‘zida 5000 dan ortiq nusxada sotilgani ma‘lum bo‘ladi. Tarjimon 1897–1898-yillarda Bolgariyada 200 ta, Dobrujadagi qrim turklari orasida esa 100 tagacha nusxa sotgan [8.47]. “Tarjimon” gazetasi 1912-yilda Turkiyadan tashqari Misr, Eron, Hindiston va hatto Marokashda ham sotilgan. Gasprinskiy gazetaning bosh muharriri sifatida ishlagan va nashrning eng mayda tafsilotlarigacha shaxsan o‘zi e‘tibor qaratgan [7.112].

Ismoil Gasprinskiy o‘z gazetasida umuman Rossiya musulmonlari-turklarining zamonaviylashuvi zarurligi haqida so‘z yuritgan. “Tarjimon” orqali buni amalga oshirish yo‘llarini izlagan Gasprinskiy, oldiga chiqqan to‘siqlarni yengish uchun esa yana “Tarjimon”dan foydalangan. Uning fikricha, zamonaviylashuvning ustuvor yo‘nalishlari orasida ta‘lim va til birligi muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli “Tarjimon” gazetasida ta‘lim va tildan foydalanish muammolariga keng o‘rin ajratilgan.

Qisqa vaqt ichida butun turk dunyosiga murojaat qilgan “Tarjimon” butun islom olamining dardlarini tushuntirib, ularga yo‘l ko‘rsatuvchi gazeta bo‘lishga intilgan. Nafaqat Rossiya hududlarida yashovchi turklar, balki Turkiya turklari yoki Turkiyada istiqomat qilayotgan Rossiya turklari tomonidan diqqat bilan kuzatiladigan gazeta, avvalo turklarning madaniy hayoti bilan bog‘liq masalalarga e‘tibor qaratib, xalq ta‘limi ustida to‘xtalgan. Gasprinskiy ushbu gazetada o‘zi asoschilari qatorida bo‘lgan yangi usuldagi ta‘lim tizimini xalqqa tushuntirishga va yoshlarning bunday maktablarda ta‘lim olishlarini ta‘minlashga harakat qilgan.

Ismoil Gasprinskiy 1893-yili Turkistonga ilk kelishida shirvonlik Majid G‘anizoda hamrohlik qilgan. U shu safarida Shahrisabzga ham borgan. Majid G‘anizoda Samarqandda 40 kun mobaynida yangi usul maktabida dars beradi [5.191]. Safar taasurotlari haqida Ismoil Gasprinskiy Turkistonga ikkinchi marta 1908-yili keladi. Mana shu safaridan keyin Buxoro amiri va Xiva xoniga murojaat qiladi. Ushbu murojaatida g‘aflat uyqusidan uyg‘onish kerakligi, aks holda Turkiston mustamlakaga aylanishi mumkinligini ta‘kidlagan [6].

XULOSA

Ismoil Gasprinskiyning harakatlari natijasi o‘laroq XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ham yangi usul maktablari tarmog‘i kengaya boshladi. Musulmon xalqlarini ma‘rifatli qilish yo‘lida faoliyat boshlagan Ismoil Gasprinskiyning harakati tez orada o‘z aks sadosini berib, o‘lkamizda ham bu usuldagi maktablar soni ko‘payib, butun boshli tizimga aylanib ulgurdi. Dastlabki jadidlar ta‘lim tizimini isloh qilishda inqilobiy yo‘lni afzal ko‘rganlar. Buning mohiyati shuki, mavjud an‘anaviy ta‘lim tizimini butunlay sindirib, oldinga qo‘yilgan maqsad yangi, yosh avlod tomonidan amalga oshirilishi kerak. Chunki mavjud ta‘lim tizimida faoliyat olib borayotgan shaxslar uchun yangi tizim maqbul emas.

Jadid matbuoti vujudga kelishida tatar ma‘rifatparvarlari faoliyati katta rol o‘ynadi. Ayni paytda 1905-yil Rossiyada ba‘zi demokratik erkinliklarning berilishi Turkistonda ham mahalliy matbuot rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Mahalliy matbuotning vujudga kelishida jadid – yoshlar asosiy mas‘uliyatni zimmalariga oldilar. Ayni paytda matbuot yangi, yosh avlod adabiyotchilari uchun o‘z qalamlarini charxlovchi maydonga aylana oldi. Afsuski, mahalliy matbuotning rivojlanishi uch yilgina davom etdi. Stolipin reaksiyasining kuchayishi Turkistonda mahalliy matbuotning yanada rivojlanishiga to‘siq bo‘ldi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ismoil Gasprinskiy. Maktablar statistikasiga oid // Tarjimon. 1884. 31-dekabr.
2. Ismoil Gasprinskiy. Qrim maktablari // Tarjimon. 1888. 8-fevral.
3. Tarjimon. 1884. 8-mart.
4. Tarjimon. 1895. 21-may.
5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma‘rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2002. – 400 b.
6. Xonlara xitob // Tarjimon. 1906. 11-avgust.

7. Berrin KALSİN. İsmail Gaspıralı ve Tercüman gazetesi // Uluslararası Hakemli İletişim ve Edebiyat Araştırmaları dergisi. Cilt 2. Sayı 2. 2014. – S. 95-115.
8. Devlet N. İsmail Bey Gaspıralı (1851 – 1914). – Ankara: Başbakanlık basım evi, 1988. – 138 s.
9. Gaspıralı İ. İsmail Gaspıralı Seçilmiş Eserleri: III Dil-Edebiyat Seyahat Yazıları, Yay. Haz. Yavuz Akpınar, İstanbul: Ötüken Yayıncılık, 2008. – 257 s.
10. Ekinci Y. Gaspıralı İsmail. Ankara: Ocak Yayınları, - 1997. – 124 s.
11. Kurat A.N. Kazan Türklerinin ‘Medeni Uyanış’ Devri. – Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih – Coğrafya Fakülte Dergisi, C.XXIV, (3-4). 1966. – S. 110-145.
12. Selcan Sağlık Şahin. İsmail Gaspıralı, Türk kadını ve Alemi Nisvan Dergisi // Modern Türklük dergisi. İsmail Bey özel sayısı. Cilt 1. Sayı 4 (Aralık 2014). – S. 210-223.
13. Taybe Topsakal. Rusya Türklerinin ve Müslümanlarının Milli ve Medeni Bilinçlenmelerinde Tercüman Gazetesinin Rolü // Sosyal Bilimler Dergisi. 2018. Cilt 8. Sayı 2. – S. 400.
14. Özkaya Y. İsmail Gaspıralı’nın Kıraat-ı Türki Adlı Eseri. – İstanbul: Türkbilig, 2011. – S. 79-86.
15. Abdulaziz ARTIŞ. Kazanda ceditçilik hareketi ve Kursavı (XIX yüzyıl başları). // Bayburt Üniversitesi İlahiyat Fakültesi, Dergisi Yıl, 2017 Sayı, 6: 89-113.
16. İbrahim Koncak. Ceditçilik hareketi ve Türkistan – Osmanlı devleti ilişkileri // Çankırı Karatekin Üniversitesi Uluslararası Avrasya Strateji dergisi 2 (1). – S. 105-114.
17. Devlet N. İsmail Gaspıralı: Unutturulan Türkçü İslamcı Modernist. - İstanbul: Başlık Yayın Grubu, 2011. – S. 73-75.
18. Русское мусульманство – мысли, заметки и наблюдения мусульманина. – Симферополь: Спиро, 1884. – 43 с.

Акбаров Р. Х.

Доцент кафедры «Всемирная история»
Ферганский государственный университет
[ravshanakbarov04.@gmail.com](mailto:ravshanakbarov04@gmail.com)

РОЛЬ ГАЗЕТЫ «ТАРДЖИМАН» В РАСПРОСТРАНЕНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЖАДИДОВ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются усилия Исмала Гаспринского по изданию газет и системе образования, общая картина системы образования среди мусульман в Крыму и Центральной Азии во второй половине XIX века, социальные предложения и взгляды, выдвинутые джадидами, а также заслуги газеты «Тарджиман» в совершенствовании системы образования. Как известно, значительная часть деятельности И. Гаспринского напрямую

связана с Турцией. Поэтому при подготовке статьи, помимо газетных материалов, широко использовались работы турецких историков по данной теме, так как богатые ценными материалами исследования об И. Гаспринском были опубликованы турецкими историками.

Ключевые слова: газета, религиозная школа, новометодная школа, учебник, образование, учитель, экзамен, права женщин, концепция «мирного города».

Akbarov R. Kh.

Associate professor at the department of «World History»

Fergana State University

ravshanakbarov04@gmail.com

THE ROLE OF THE “TARCIMAN” NEWSPAPER IN THE DISSEMINATION OF JADID EDUCATIONAL ACTIVITIES

ABSTRACT

This article examines Ismail Gasprinsky's efforts in publishing newspapers and the education system, the overall picture of the Muslim education system in Crimea and Central Asia in the second half of the 19th century, the social proposals and views put forward by the Jadids, and the contributions of the “Tarciman” newspaper to improving the education system. As is well known, a significant portion of Gasprinsky's work is directly related to Turkey. Therefore, in preparing this article, in addition to newspaper materials, extensive use was made of the works of Turkish historians on this topic, as Turkish historians have published valuable research on Gasprinsky.

Keywords: newspaper, religious school, new method school, textbook, education, teacher, exam, women's rights, concept of “peaceful city”.